

O‘ZBEK, TURK VA QIRG‘IZ ADABIYOTIDA KOMPOZITSIYA YARATISHNING O‘ZIGA XOSLIGI (ORHAN PAMUK VA CHINGIZ AYTMATOV ASARLARI MISOLIDA)

Elmurodov Azizjon G‘ayratovich

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20775857>

ANNOTATSIIYA: Ushbu maqolada turk, qirg‘iz va o‘zbek adabiyotlarida kompozitsiya tushunchasining badiiy-estetik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompozitsiyaning nazariy asoslari, uning syujet, obrazlar tizimi, xronotop, ramz va narrativ tuzilma bilan bog‘liqligi yoritilgan. O‘rxon Pomuk hamda Chingiz Aytmatov asarlari misolida postmodernistik va mifopoetik kompozitsiyaning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilib, ularning o‘zbek adabiyotidagi kompozitsion an‘analar bilan mushtarak va farqli tomonlari aniqlangan.

KALIT SO‘ZLAR: Kompozitsiya, intertekstuallik, semiotika, germenevtika, narrativ, xronotop, mifopoetika, postmodernism.

THE DISTINCTIVE FEATURES OF COMPOSITIONAL CONSTRUCTION IN UZBEK, TURKISH, AND KYRGYZ LITERATURE (On the Example of the Works of Orhan Pamuk and Chingiz Aitmatov)

Elmurodov Azizjon G‘ayratovich

First-Year Master's Student, Faculty of Humanities, CHDPU

ABSTRACT: This article presents a comparative analysis of the artistic and aesthetic features of the concept of composition in Turkish, Kyrgyz, and Uzbek literature. The study examines the theoretical foundations of composition and its relationship with plot, the system of characters, chronotope, symbols, and narrative structure. Using the works of Orhan Pamuk and Chingiz Aitmatov as examples, the distinctive characteristics of postmodernist and mythopoetic composition are analyzed, and their common as well as distinctive features in relation to compositional traditions in Uzbek literature are identified.

KEYWORDS: Composition, intertextuality, semiotics, hermeneutics, narrative, chronotope, mythopoetics, postmodernism.

ОСОБЕННОСТИ СОЗДАНИЯ КОМПОЗИЦИИ В УЗБЕКСКОЙ, ТУРЕЦКОЙ И КИРГИЗСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (На примере произведений Орхана Памука и Чингиза Айтматова)

Элмуродов Азизжон Гайратович

Магистрант 1 курса факультета гуманитарных наук ЧДПУ

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится сравнительный анализ художественно-эстетических особенностей понятия композиции в турецкой, киргизской и узбекской литературе. Рассматриваются теоретические основы композиции и её связь с сюжетом, системой образов, хронотопом, символами и нарративной структурой. На примере произведений Орхана Памука и Чингиза Айтматова анализируются особенности постмодернистской и мифопоэтической композиции, а также выявляются их общие и

отличительные черты в сопоставлении с композиционными традициями узбекской литературы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Композиция, интертекстуальность, семиотика, герменевтика, нарратив, хронотоп, мифопоэтика, постмодернизм.

Kirish (Introduction). Adabiyotshunoslikda kompozitsiya tushunchasi badiiy asar tarkibidagi qismlar, obrazlar va ularning syujet chizig'ida birlashishi, muallifning fikr-tuyg'ularini estetik jihatdan bayon etishdagi izchillikni ifodalaydi. Kompozitsiya atamasi lotin tilidagi “composition” so'zidan olingan bo'lib, tartibga solish, tuzilish, qism va bo'lak kabi ma'nolarni bildiradi.

Tomoshevskiyning bu boradagi qarashlari ahamiyatli va o'rinlidir. Syujetning qurilishi, turli vaqt doirasida hikoya qilish usullarining muallif tili orqali amalga oshirilishi, ramzlar, voqea-hodisalar hamda tarixiy voqealarning reallik asosida ifodalanishi kompozitsiya bilan bog'liqdir. Turk, o'zbek va qirg'iz adabiyotida ham ushbu vosita muhim hisoblanadi hamda turli adabiy an'analar asosida rivojlanib keladi.

Metodologiya (Methods / Methodology). XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib kompozitsiya alohida estetik jihatdan shakllangan yo'nalish sifatida baholana boshlandi. Turk adabiyoti g'arb postmodernizmi bilan o'zaro integratsiyaga kirishgan adabiyotlardan biri hisoblanadi. Bu borada qirg'iz va o'zbek adabiyoti ham o'ziga xos hamda qiyoslanuvchi adabiyotlar sifatida mifologik realizm asosida ifodalanadi. Gaychayevning 1988-yildagi fikrlari ham bunga misol bo'la oladi. O'zbek adabiyotida psixologizm tushunchasining turli mafkuraviy va tarbiyaviy muammolar asosida ifodalanishi ko'plab badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ushbu **tadqiqotning dolzarbligi** adabiyotda yaratilayotgan asarlarning kompozitsion jihatdan mukammallikka erishishini o'rganish bilan belgilanadi. Turk adabiyotidan Orhan Pamuk, qirg'iz adabiyotidan esa Chingiz Aytmatov asarlari ko'plab tadqiqotlarga sabab bo'lib, ular asosida kompozitsiya tuzilishi va uning shakllari haqida turli ilmiy qarashlar shakllangan.

Maqolaning maqsadi turk va qirg'iz adabiyotida kompozitsiya yaratilishining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish, ularning farqli jihatlarini tahlil qilish hamda o'zbek adabiyoti bilan qiyoslashdan iboratdir. Tadqiqot vazifalari sifatida kompozitsiya yaratish qoidalarining metodologik asoslarini aniqlash, O. Pamuk asarlarida zamonaviy xususiyatlarning kompozitsiya bilan semiotik aloqalarini ko'rsatish, Chingiz Aytmatov asarlarida mifologik obrazlarning kompozitsiyaga kiritilishi va xalq og'zaki ijodining ahamiyatini ochib berish, shuningdek, o'zbek adabiyotida kompozitsiya yaratish an'alarining zamonaviylik bilan uyg'unligini izohlash hamda uch adabiyotning o'zaro integratsiyasi modelini ishlab chiqish belgilangan.

Natijalar (Results). Tadqiqotda uchta asosiy metodologik yondashuvdan foydalanilgan: germenevtik, intertekstuallik va semiotik yondashuvlar. “Kompozitsiyani tahlil qilishda so'zlarning qo'llanilishi va ma'no qatlamlarini ochishda germenevtik tamoyillar muhim o'rin tutadi”¹. Orhan Pamuk asarlarining ko'p qatlamli mazmuni hamda Chingiz Aytmatov asarlarida mifologiya va xalq og'zaki ijodining realistik tasvirlar bilan uyg'unlashuvi buning yorqin misolidir.

Intertekstuallik nuqtai nazaridan har qanday matnda boshqa matnlar va nazariy qarashlar bilan bog'liq unsurlar mavjud bo'ladi. Orhan Pamuk romanlarining g'arb adabiy tafakkuri bilan bog'liqligi hamda Chingiz Aytmatov asarlarining turkiy va mo'g'ul eposlari bilan munosabatlari tadqiqotda alohida ko'rib chiqilgan. “Semiotik jihatdan esa matndagi belgilar tizimi, xronologiya, ramzlar, leytmotivlar va narrativ funksiyalarning kompozitsiya bilan bog'liqligi tahlil qilinadi”².

¹ Бахтин М. М. — *Проблемы поэтики Достоевского*. Москва: Художественная литература, 1972.

Tadqiqot materiallari sifatida Orhan Pamukning *“Qor”*, *“Mening ismim Qizil”*, *“Ma’sumlik muzeyi”* asarlari hamda Chingiz Aytmatovning *“Oq kema”*, *“Asrga tatigulik kun”*, *“Qiyomat”* asarlari tanlangan. O‘zbek adabiyotidan esa qiyosiy material sifatida *O‘tkir Hoshimov*, *Xurshid Do‘stmuhammad* va *Said Ahmad* asarlariga murojaat qilingan.

Metodologik jihatdan qiyosiy-tavsifiy yondashuv maqolaning ifodaviyligi va sinxron tahlil imkoniyatlari bilan ahamiyatlidir. Diaxron tahlil esa qiyoslash natijasida yuzaga keluvchi materiallarning tarixiy asoslarini ochib beradi.

Postmodernistik ko‘p qatlamlilik tamoyili Orhan Pamuk asarlarida yetakchi o‘rin tutadi. U 2006-yil Nobel mukofoti sovrindori bo‘lib, postmodernistik poetikasi bilan mashhur ijodkor hisoblanadi. Uning kompozitsion tizimi ko‘p ovozlilik tamoyili bilan ajralib turadi. *“Mening ismim Qizil”* romanida Istanbul hayoti fonida turli ovozlilar, o‘lgan jasadlar, ranglar, tangalar, it va boshqa obrazlar semiotik jihatdan birlashadi. Ushbu kompozitsion usul ayrim jihatlari bilan Mixail Baxtinning polifonik roman nazariyasiga yaqinlashadi.

Semiotik jihatdan *“Mening ismim Qizil”* asarida ikki asosiy oppozitsiya mavjud: sharqona miniatyura san’ati va g‘arbona perspektiv tasvir usuli. *“Qor”* romanida esa shaxsiy xronotop va siyosiy hayot o‘zaro uyg‘unlashadi. Asar makoni bo‘lgan Kars shahri sharq va g‘arb, diniylik va dunyoviylik, Turkiya va Yevropa o‘rtasidagi ramziy nuqta sifatida talqin qilinadi. Bu holat romanning tarixiylik va xronotop bilan bog‘liq kompozitsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu asarlarning *“jahon adabiyotida e’tirof etilishi Baxtin va Lotman nazariyalari bilan hamohang tarzda izohlanadi”*³. Orxon Pamuk asarlarida metaforalarning qo‘llanilishi ham kompozitsiya bilan chambarchas bog‘liq. *“Ma’sumlik muzeyi”*⁴ romani Istanbuldagi real muzey bilan bog‘langan bo‘lib, muallif romanda tasvirlangan buyumlarni haqiqiy eksponatlarga aylantiradi.

Qirg‘iz adabiyotida epik an‘ana va mifopoetik kompozitsiyalar yaqqol namoyon bo‘ladi. *“Manas”* dostoni bunga yorqin misoldir. *“Asrga tatigulik kun”* asarida milliy mentalitet va zamonaviylik xususiyatlari turli kompozitsion qatlamlar orqali ifodalanadi. Yedigey obrazi bilan bog‘liq voqealar hamda Nayman ona haqidagi afsona manqurtlik tushunchasi bilan uzviy bog‘langan holda beriladi.

Muhokama (Discussion). Xalq og‘zaki ijodining intertekstual munosabatlari qirg‘iz adabiyotini o‘rganishda genetik intertekstuallik bilan bog‘liqdir. Xalq eposi nafaqat ramzlar, balki kompozitsion tuzilma va mazmuniy markazlar orqali ham ifodalanadi.

“Oq kema” asarida kiyik haqidagi afsona, zamonaviy hayot va insonning tabiat bilan munosabatlari muhim o‘rin egallaydi. Asarda insonlarning tabiatga munosabati, aytilayotgan ertaklar va amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik chuqur badiiy mazmun kasb etadi.

Qirg‘iz kompozitsiya modelining strukturaviy xususiyatlaridan biri mifologik zamonning takrorlanuvchi, ya’ni siklik vaqt shaklida namoyon bo‘lishidir. Tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat Chingiz Aytmatov asarlarining muhim g‘oyaviy qatlamini tashkil etaadi. O‘zbek adabiyotida esa psixologizm turli badiiy izlanishlar natijasida shakllangan. O‘tkir Hoshimov, Said Ahmad va Abdulla Qahhor asarlari buning yorqin misoli hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotning o‘zbek modeli aynan ushbu ijodkorlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek adabiyotining ahamiyati shundaki, kompozitsiya yaratishda tarixiy haqiqatlar va folklor manbalaridan keng foydalaniladi. Bunda *“Alpomish”*, *“Go‘ro‘g‘li”* kabi eposlarning motivlari

² Лотман Ю. М. — *Структура художественного текста*. Москва: Искусство, 1970

³ Томашевский Б. В. — *Теория литературы. Поэтика*. Москва: Аспект Пресс, 1996.

⁴ Pamuk O. — *My Name is Red*. London: Faber & Faber, 2001.

va kompozitsion unsurlari bilan bog‘liq intertekstual aloqalar muhim o‘rin tutadi. Shu bois o‘zbek adabiyotida intertekstuallik asosida yaratilgan asarlar ham salmoqli o‘rin egallaydi.

*“Chingiz Aytmatov asarlarida genomatn funksiyasi kuzatilsa, o‘zbek adabiyotida tarixiylik xususiyati yozma poetika orqali ifodalanadi. Buni Xurshid Do‘stmuhammad va boshqa adiblar romanlari misolida ham ko‘rish mumkin. Janrlarning rivojlanishi natijasida asarlar kompozitsiyasi ham o‘zgarib bormoqda”*⁵. O‘zbek kompozitsion modelining o‘ziga xos jihati nasrda axloqiy ziddiyatlar, insoniy poklik, namunaviylik va ma’naviy qadriyatlarining badiiy talqini bilan bog‘liqdir. Shuningdek, oila va jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, ularning o‘zaro mutanosibli, individual qarashlar bilan jamoaviy tafakkurning uyg‘unlashuvi ham o‘zbek adabiyotining muhim mavzularidan hisoblanadi. Ayniqsa, bu holat mustaqillikkacha bo‘lgan davr asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunga sovet davridagi jamoaviylik va kollektivlashtirish g‘oyalarining adabiyotga ham ta’sir ko‘rsatgani sabab bo‘lgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, o‘zbek adabiyotida kompozitsiya yaratish tamoyillari she’riy va nasriy yo‘nalishlarda yaratilgan dostonlar hamda boshqa badiiy asarlarda ham ko‘zga tashlanadi. Bu xususiyat matnlarning semiotik zichligi bilan bog‘liqdir. Farqli jihati shundaki, har uch adabiyot o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy omil turkiy xalqlar madaniyati va tarixiy ildizlarining mushtarakligidir.

Narrativ tuzilma jihatidan turkiy adabiy merosda, jumladan, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari bilan bog‘liq an‘analarda parallelizm, ko‘p ovozlilik, matnlararo munosabatlar va murakkab narrativ qurilmalar uchraydi. Rivoyatlar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari zamonaviy adabiyotda yangicha talqin qilinib, psixologik va postmodern usullar bilan uyg‘unlashadi. Natijada mifologik va realistik qatlamlarning integratsiyasi yuzaga keladi. Ayrim asarlarda Istanbul xronotopi ham muhim kompozitsion unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

Chingiz Aytmatov asarlarida esa qayta kodlashtirish, ya’ni ma’lum bir voqea yoki obrazning boshqa asarda yangi ma’no va talqin bilan namoyon bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat muallifning muayyan mavzularni takror murojaat qilish orqali chuqurlashtirishiga xizmat qiladi. Aytmatov asarlarida realistik va mifologik qatlamlarning uyg‘unlashuvi ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. *“Oq kema”* asari bunga yorqin misol bo‘lib, unda yosh avlod va keksa avlod o‘rtasidagi munosabatlar mifologik hamda realistik tasvirlar orqali yoritiladi.

Turk adabiyotida mavzularning xilma-xilligi va zamonaviy g‘arb adabiyotiga xos elementlarning uyg‘unlashuvi kuzatiladi. O‘zbek adabiyotida esa postmodern adabiyot tendensiyalari tobora kuchayib bormoqda. Bu holat *Zulfiya Qurolboy qizi, O‘lmas Umarbekov, Hamid Ismoil* va boshqa zamonaviy adiblar asarlarida ham namoyon bo‘lib, matnlararo aloqalar, ramziy qatlamlar va yangi kompozitsion yechimlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa (Conclusion). **Xulosa (Conclusion):** Turk, qirg‘iz va o‘zbek adabiyotlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompozitsiya badiiy asarning estetik mukammalligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Orhan Pamuk asarlarida postmodernistik ko‘p qatlamlilik, polifonik tasvir va semiotik belgilar tizimi ustuvor bo‘lsa, Chingiz Aytmatov ijodida mifologik qatlam, xalq og‘zaki ijodi va realistik tasvirning uyg‘unligi yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbek adabiyotida esa tarixiylik, psixologizm, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar hamda folklor an‘analariga tayangan kompozitsion model shakllangan.

Tadqiqot davomida intertekstuallik, semiotika va germeneytik yondashuvlarning kompozitsiyani tahlil qilishdagi ilmiy ahamiyati aniqlandi. Har uch adabiyotda ham milliy tafakkur, tarixiy xotira va turkiy madaniy birlik kompozitsion qurilmalarning asosiy omili sifatida

⁵ Aytmatov Ch. — *The Day Lasts More Than a Hundred Years*. Bloomington: Indiana University Press, 1988.

namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiy jarayonlar ta'sirida kompozitsion shakllarning yangilanib borayotgani, postmodernistik va mifologik unsurlarning integratsiyasi kuchayib borayotgani kuzatildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бахтин М. М. — *Проблемы поэтики Достоевского*. Москва: Художественная литература, 1972.
2. Лотман Ю. М. — *Структура художественного текста*. Москва: Искусство, 1970.
3. Томашевский Б. В. — *Теория литературы. Поэтика*. Москва: Аспект Пресс, 1996.
4. Pamuk O. — *My Name is Red*. London: Faber & Faber, 2001.
5. Aitmatov Ch. — *The Day Lasts More Than a Hundred Years*. Bloomington: Indiana University Press, 1988.